



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 30-yanvar, № 22 (8645)

Seshanba Saytimgiza o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



QURILISH, TRANSPORT VA EKOLOGIYA SOHALARIDAGI ISHLAR TAHLIL QILINIB, MUHIM VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-yanvar kuni uy-joy va kommunal xo'jaligi, qurilish, transport va ekologiya sohaslaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Aholiga munosib sharoitlar yaratish, hayot sifatini ta'minlash maqsadida bu sohalarda ukan ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan yili hududlarda mingdan ortiq infratuzilma inshootlari, 2 mingga yaqin ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. Avtomobil yo'llari, suv va issiqlik tarmoqlari qurildi. Transport xizmati uchun yangi avtobus va samolyotlar olib kelindi.

Shu bilan birga, qurilish sohasiga zamonaviy standartlarni joriy qilish va sifatini ta'minlash borasida kamchiliklar ko'p. Ichimlik suvi tannaxsi va tarmoqlardagi yo'qotishlar kamaymagan. Fuqaro aviatsiyasida mahalliy reyسلar talabga nisbatan 2-3 barobar kam. Temir yo'lda yuk tashishga ko'p vaqt ketmoqda. Toshkent shahrida tirbandlik muammosi haligacha hal bo'lmagan yo'q. Havo ifloslanishining oldini olish bo'yicha choralar yetarli emas.

Tanqidiy ruhda o'tgan yilgi ish avvalida shu kabi kamchiliklarning sabablari ko'rib chiqildi. Faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'ygan bir qator rahbarlarga intizomiy choralar qo'ldi.

Transport, kommunikatsiyalar, qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi tizimiga kiruvchi barcha vazir va hokim o'rinbosarlari faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) joriy etilishi belgilandi.

Joriy yilda investitsiya dasturi doirasida 1 ming 637 ta infratuzilma inshooti qurilishi rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari bunda budget mablag'larini samarali ishlatish, qurilishlar sifatini ta'minlash zarurligiga e'tibor qaratdi.

Amaldagi loyihalash va qurilish jarayonlari resurs usuliga asoslangan. Loyiha tashkilotlari obyekt qiymatini imkon qadar "shishirishga" harakat qilmoqda. Qurilishlarda talon-torajlik va o'g'irlik holatlarini uchrayapti.

Shu bois endi loyihadan boshlab, obyektini foydalanishga topshirguncha bo'lgan barcha jarayon yangicha tashkil etiladi. Unga ko'ra kelgusi yil 1-yanvardan barcha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, qurilish va ularni qabul qilishda resurs usulidan voz kechilib, hajm usuliga o'tiladi.

Bu tartib shu yil 1-iyuldan yo'l, ichimlik suvi va ko'prik qurilishi loyihalarida joriy qilinadi. Ushbu

sohalarni korrupsiyadan xoli qilish maqsadida qurilishda tuziladigan barcha shartnomalar raqamlashtirildi, pudratchi tashkilot bajargan ishlar faqat soliq organiga taqdim etilgan elektron hisob-fakturadan kelib chiqib moliyalashtirildi, obyektini foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtirilib, dalolatnomalar "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida tasdiqlanadi. 10 milliard so'mdan ortiq loyihalar bo'yicha subpudratchilarni tanlash ham mazkur tizim orqali yo'lga qo'yiladi.

Ushbu tartib xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarga ham tatbiq etilib, qurilish materiallari qayerda qancha pul turishini onlayn kuzatib boradigan tizim bo'ladi.

Hamma hisob-kitob, mablag'ni iqtisod qilish loyiha ishlab chiqish jarayonida bo'lishi kerakligi qayd etildi. Buning uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligida Loyiha ofisi tuzildi. U qiymati 10 milliard so'mdan yuqori loyihalarni ishlab chiqish jarayonida ularning asosligini, xavfsizlik va energiya tejamkorligini baholab boradi. Ijtimoiy muassasalar va kommunal obyektlar bo'yicha namunaviy loyihalar ishlab chiqadi. Bundan buyon Loyiha ofisining tavsiyasi bo'lmagan loyiha hujjatlari davlat ekspertizasiga qabul qilinmaydi.

Mutasaddirlarga qurilish me'yorlari xorijiy tajriba asosida yangilash, qurilish materiallari sohasida "yashirin iqtisodiyot"ga chek qo'yish, bu borada elektron klassifikatorni ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan budget hisobidan qilinadigan barcha xaridlar Soliq qo'mitasining "Ye-ombor" platformasi orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Joriy yilda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 2,5 milliard dollarlik yangi loyihalar boshlanadi. Qayd etilganidek, endi bunday loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari ham majburiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Shuningdek, tashqi qarz hisobidan loyiha amalga oshirish tizimi ham o'zgaradi. Bunda loyihalarning baholish hisoboti va texnik-iqtisodiy asoslari bir-biriga moslashtirilib, bitta loyiha hujjati ishlab chiqiladi. Natijada vaqt 8-9 oyga qisqaradi. Texnik-iqtisodiy

asosi tasdiqlanmagan loyihaga qarz jalb qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Yig'ilishda shaharlarni rejalashtirishdagi kamchiliklar ko'rsatib o'tildi. Ko'p joylarda ham o'z holiga tashlab qo'yilgan oqibatida ijtimoiy infratuzilma, xizmatlar va ish o'rinlari birdek rivojlanmayapti. Ayrim binolar pala-partish, ko'chalar qiyofasiga nomutasos qurilyapti.

Shu bois o'zboshimchalik bilan va noqonuniy qurilgan obyektlarni tartibga olish bo'yicha qonunchilikni mustahkamlash, tegishli idoralar ishtirokida yangi tizim yaratish zarurigi ta'kidlandi.

Bu yil 170 ta, kelasi yili kamida 300 ta shahar va shaharchaning bosh rejasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bunda "Mening hududim" platformasi ishga tushirilib har bir reja aholi bilan muhokama qilinadi va ijrosi bo'yicha jamoatchilik nazorati o'rnatiladi.

Davlatimiz rahbari yangi uy-joylar tannaxsi masalasiga alohida ta'kid etildi. Quruvchi kompaniyalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida lptekani ko'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilinishi belgilandi.

Bu yil 80 ming xonadonli 1 ming 800 ta uy-joy va 45 ta "Yangi O'zbekiston" massivi barpo etilishi aytiladi.

Kommunal soha tahlil qilinar ekan, aksariyat ko'p qavatli uylarda energiya sarfi yuqori ekani qayd etildi. Shu bois ularda energiya tejash bo'yicha alohida dastur amalga oshirildi. Unga muvofiq ko'p qavatli uylar joyiga qarab markazlashgan, lokal yoki individual isitish tizimiga, ayrim qozonxonalar kogeneratsiya texnologiyasiga o'tkaziladi. Bu orqali 2024-yilning o'zida 600 ming gigakaloriya issiqlik energiyasi va 2,5 milliard kilovatt elektr iqtisod qilish mumkin.

So'nggi yillarda ichimlik suvi sohasiga 25 ta loyiha doirasida xalqaro moliya tashkilotlaridan 2,5 milliard dollar jalb qilindi. O'tgan yilning o'zida barcha manbalardan 8 trillion so'm yo'naltirildi. Joriy yilda qo'shimcha 1,5 million aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda.

Mutasaddirlarga ichimlik suvi sifati standartlarini

yangilab, barcha inshootlarda joriy etish, nasoslarni modernizatsiya qilib, suv yetkazib berish tannaxsin kamaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Shuningdek, 5 ta shaharda — Kogon, Shirin, Yangiyer, Bekobod va Yangiyul shaharlarida tajriba tariqasida suv ta'minotiga xususiy sheriklar jalb qilinishi aytiladi.

Ko'p qavatli uylarni ta'mirlash, yerto'lalarini tadbirkorlarga ijaraga berish masalalariga ham o'xtalib o'tildi. Endi bu boradagi ma'lumotlar ham raqamlashtirilib, "Mening uyim" tizimiga bog'lanadi hamda aholi va tashabbuskorlarga ochiq e'lon qilinadi.

Boshqaruv kompaniyalari va shirkatlarining kreditlarini so'ndirish hamda debitor qarzdorligini qisqartirish choralarini belgilandi.

Umuman, elektr energiyasi, gaz, suv, issiqlik, chiqindi va soliq to'lovlar bo'yicha xonadonning yagona billing hisob raqamini joriy qilish vaqti kelgani ta'kidlandi.

Transport sohasi haqida so'z boranda, avvalo, jamoat transporti qamrovini oshirishga alohida ahamiyat qaratildi. Yangi avtobuslar olib kelish, shaharlarda yo'lovchi tashishni brutto-shartnoma asosida moliyalashtirishga o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yo'l qurilishida "yashirin iqtisodiyot" ulushi yuqoriligi, buni nazorat qiladigan Transport inspeksiyasining faoliyatini sustligi ko'rsatib o'tildi. Mutasaddirlarga yo'l qurilishidagi 40 dan ziyod standart va me'yorlarni Xalqaro muhandis-konsultantlar federatsiyasi talablariga moslashtirish topshirildi.

Xalqaro yo'nalishlarda temir yo'l qatnovlarini, yuk va yo'lovchi vagonlari ishlab chiqarishni ko'paytirish muhimligi ta'kidlandi. "Qo'qon", "Samarqand" va "Toshkent" vokzallari, "Andijon" hamda "Urganch" aeroportlari boshqaruvini xususiy sektorga berilishi belgilandi. Shuningdek, Shahrisabz, Sariosiyo va Qo'qon aerodromlari ta'mirlanib, mahalliy aviataxshuvlar yo'lga qo'yiladi.

Toshkent shahrida tirbandlik muammosining yechimini topish, drenaj tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Ekologiyani asrash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan.

Yurtimizda 2020-yildan buyon 22 mingga yangi sanoat korxonasi ishga tushgan. Umuman, bugungi kunda sanoat korxonalarini va avtomobillardan atmosferaga yilliga 2 million tonnadan ziyod ifloslantiruvchi moddalar chiqyapti. Ko'p hollarda qurilish obyektlari va loyihalar ekologik ekspertizadan o'tkazilmasdan amalga oshirilyapti.

Shuning uchun 1-apreldan boshlab har bir hududning qabul qilinadigan rejalarning ifloslanish darajasiga havolalar qurilish joriy qilinishi belgilandi. Toshkent va Nukus shaharlari, viloyat markazlari hamda sanoatlashgan 20 ta tumanda avtomatik havo monitoringi stansiyalarini o'rnatishni boshlash vazifasi qo'yildi.

Yirik sanoat va barcha sement korxonalarida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o'rnatiladi, eskilari almashtiriladi. Qurilish materiallari, energetika, metallurgiya korxonalarini tomonidan 5 gektardan "yashil belbog" yaratilib, jami 10 million tup daraxt ekiladi.

Kelgusi besh yil davomida Toshkent shahri va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarida 3 ming gektar "yashil belbog" va 200 gektar yashil bog'lar tashkil qilinadi.

Toshkent shahrida atmosfera havoningin sifati ko'rsatkichini doimiy e'lon qilib boradigan tablo va monitorlar o'rnatiladi. Shuningdek, poytaxt ko'chalarida og'ir yuk mashinalari va muddati 10 yildan oshgan avtomobillar harakati bosqichma-bosqich cheklanadi. 2025-yil 1-yanvardan "Al-80" markali benzindan voz kechish masalasi hal etiladi.

Toshkent shahri jamoat transportini elektr va gazga o'tkazish, metro vagonlari sonini oshirish choralarini ko'riladi. "Yashil energetika" ni qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarning oldini olish va zararli oqibatlarni kamaytirish maqsadida aholining elektromobillarga o'tishini rag'batlantirish tizimi joriy qilinadi.

Yig'ilish yakunida Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar va hokimlar joriy yilgi rejalari bo'yicha axborot berdi.

O'ZA.

ILMSIZLARNI TARIX HAQIQATLARI FOSH ETADI

Dunyo ayvonida ro'y berayotgan chuqur transformatsiya jarayonlari azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlarni ham chetlab o'tmayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "ilgari o'z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'lga o'tgani" xalqimizga ayon masaladir.

It hurar, karvon o'tar

Afsuski, mafkuraviy kurashlar Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekistonni ham o'z girdobiga tortishga urinayotgani ayni haqiqat. Buning bir dalili sifatida aytish kerakki, millatni, tarixi buyuk xalqni, o'zbek jamiyatini g'azabga solgan, tarixchi deb atashga nomunosib rus propagandachisi Mixail Smolinning "inqilobgacha o'zbek millati bo'lmagan", deya qilgan iddaosi milliy or-nomus, g'ururga qaratilgan axborot hujumi bo'ldi. Ayni vaziyatda tarixchiga xos bo'lmagan "valdirash"ga Rossiya Tashqi ishlar vazirligi vakili bunday "g'alati bayonotlar subyektiv fikrlar" ekanini qayd etdi.

Millatimiz tarixini ittifoqdosh sifatida ham chuqur anglay bilishi kerak bo'lgan Mixail Smolinning auditoriyasi ancha kattagina telekanal qarshisida nega to'satdan bunday "xuruji" qilayotgani mohiyatida esa o'ta tuban maqsadlar borligi ayon haqiqat.

Donishmand xalqimizda "Mevali daraxtga tosh otiladi", degan naql bor. Maqollarida ham vazminlik, sabr-bardosh zohir millatimiz tarixini Smolin kabi har zamonda O'zbekistonga tish qayrab turadigan g'alamlislar kamsita olmaydi. Chunki o'z mustahkam ildiziga ega davlatchiligimiz tarixini bugun butun dunyo yaxshi biladi, o'rganmoqda va hurmat qiladi. O'zbek urug'lariga tilga olingan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk", Tabariyning "Tarix", Narshahiyning "Buxoro tarixi", Beruniyning "Osorul boqiya" kitoblarini jahon tarixchilari tadqiq qilib kelmoqda. Dunyo sayyohlari va tarixchilari Ibn Arabshoh, Ibn Battuta, Yoqut Hamaviy bundan bir necha yuzlab yillar muqaddam yozgan asarlarida bizning millat nomi tilga olingani ilm-fan sohasi vakillariga kunday ravshan.

Biroq tashqi siyosatda o'zaro hurmat, strategik sheriklik, kelishuvchanlikni saqlab kelayotgan Rossiya va O'zbekiston munosabatlari qaydardagi kabi ilmsiz va subutsiz kimsalar, shovinistlar safsatalari putur yetkazishi mumkinligi og'irliki masala.

Bu kabi jahonda sodir bo'layotgan har qanday voqealikka sog'lom va oqil fikr bilan javob izlaguvchi, uzoqni ko'zlovchi davlatimiz rahbari ayni masalada avvaldan to'g'ri yo'l ni belgilab bergan: "Agar biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o'z qo'limizga olmas ekanimiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bermas ekanimiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo'lamiz.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, Farg'ona davlat universiteti rektori.



Dunyo nigohi

Ekspertlar:

CHUQUR ILDIZGA EGA O'ZBEKISTON — XITOI ALOQALARI IZCHIL RIVOJLANMOQDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23 — 25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifi va Rais Si Zinpin hamda boshqa rasmiy shaxslar bilan o'tkazgan ikki tomnonlama muzokaralari ushbu mamlakatning yetakchii ommaviy axborot vositalari va ekspert doira vakillarining qiziqishiga sabab bo'layotir.

Qayd etish zarurki, bu kabi axborot makonidagi tajovuzlar xalqimizni kelajak uchun, Vatani va millat taqdiri uchun birlashishga, daxldorlik hissi bilan yashashga, yanada hushyorlikka chorlaydi. Ayniqsa, biz, ziyo ahlini — pedagoglarni, tarixchilarni targ'ibotga, yoshlarga tarix ilmini, millatimiz va mamlakatimiz shonli o'tmishini puxta o'rgatishga, milliy mafkuraga ega kuchli avlodni kamolga yetkazishga da'vat etadi.

Globalashuv butun dunyoga o'z hukmini o'tkazayotgan davrda o'zbekona qadriyat, milliy ong, tarix va o'zlik kuchli sinovdan o'tadi. Ishonamizki, qadim tariximiz oldidagi sharafli burchini teran anglab yashayotgan bugungi avlod har xil siyosiy nayrangbozlar, populistlar, bo'hronli reaksiyalar, nosog'lom bahslar ta'siriga berilmaydi, o'zligini yo'qotmaydi. Ziyarak xalqimiz esa har qanday tahdidlar shamolida tebranib ketaveradigan olomon emas. Chunki O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosatida ham milliy manfaatlar ustun ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Bu ishga kamarbasta bo'lishni burchimiz, deb bilamiz.

Taassurot

Qahramonlar unutilmaydi

O'zbekiston fan va madaniyat arboblarning qardosh dalgoga tashrifi Boku

O'Z ISHIGA MAS'ULIYAT VA VATANPARVARLIK

har bir rahbarning qalb amriga aylanishi kerak

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yilda uy-joy, qurilish, kommunal xo'jaligi, transport va ekologiya sohaslarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Tanqidiy-tahliliy ruhda kechgan yig'ilishda mazkur

sohalardagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha berilgan topshiriqlar va ularning ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, belgilangan ustuvor vazifalar hamda ularning ahamiyati haqida soha mutasaddirlarining fikr-mulohazalarini, ijodkor ziyolilarning munosabatini yozib oldik.

Sherzod HIDOYATOV, O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri vazifasini vaqtincha bajaruvchi: — Prezidentimiz yig'ilishda qurilish sohasini korrupsiyasiz sohaga aylantirish

Munosabat

bo'yicha juda ko'p aniq topshiriqlarni berdi. Tan olishimiz kerak bunday qurilish sohasiga zamonaviy standartlarni joriy

etish va sifatini ta'minlash dolzarb masalalardan biri. Shu bois kelgusi yil 1-yanvardan barcha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, qurilish va ularni qabul qilishda resurs usulidan voz kechilib, hajm usuliga o'tiladi.

DEMOKRATIK ISLOHOTLAR VA ERISHILGAN NATIJALAR E'TIROFI

Avval xabar berilganidek, shu yil 25-yanvar kuni Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining Londondagi bosh qarorgohida "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar va ijtimoiy sheriklik" mavzuida xalqaro forum o'tkazildi. Yuqori darajadagi yuzdan ortiq ishtirokchilar, jumladan, ETTB xodimlari, Oliy Majlis Senati a'zolari, vazirliklar, nodavlat notijorat tashkilotlari va biznes hamjamiyatlari vakillari qatnashgan bu tadbirda keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, taraqqiyot yo'lida tashlanayotgan dadil qadamlar va erishilgan natijalar e'tirofi etildi.

Nufuzli anjuman doirasida bir qator uchrashuvlar bo'lib o'tdi.

O'zaro anglashuv memorandumini imzolandi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-

Hamkorlik

Basso bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan yili may oyida Samarqand shahrida tashkil etilgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar

kengashi 32-yillik yig'ilishi o'zaro muhokamalar o'tkazish va jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda muhim maydonga aylanganini bilan tarbiya muhlalrindi.

O'z navbatida, O'zbekiston hamda ETTB o'rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganiga ham e'tibor qaratildi. Bugungi kunda bankning mamlakatimizdagi loyihalar portfeli 4 milliard yevrodan oshmoqda. ETTB moliyaviy ko'magida aholi farovonligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha muhim loyihalarni ro'yobga chiqarilayotir.

DO'STLIK, QARDOSHLIK VA HAMJIHATLIK

Shu yil 23 — 26-yanvar kunlari Ozarbayjon Respublikasida O'zbekiston Respublikasi fan va madaniyati kunlari o'tkazildi.

...Toshkent aeroportidan ko'tarilgan uchoq bulutlar bag'rini tilib Boku tomon uchib boradi. Nihozat pag'a-pag'a barqut bulutlar siyraklashib, ko'z o'ngimizda moyiy kenglik namoyon bo'ladi. Kaspiy — bahri Hazar. Dunyodagi eng yirik ko'l deya nom olgan yirik suv havzasi. Bir qaraganda dengizning adog'i yo'qdek ko'rinadi. Mo'jazzina tuynukdan ko'rinayotgan ko'm-ko'k cheksizlik xayolingizni o'g'irlaydi.

Ozarbayjonda O'zbekiston fan va madaniyati kunlari yuqori saviyada tashkil etildi. Bu bejiz emas. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev tashabbuslari bilan ikki davlat o'rtasidagi do'stona aloqalar qamrovi tobora kengayib bormoqda. O'zbekistonlik fan va madaniyati sohasi vakillarining Ozarbayjonga navbatdagi safari ana shu hamkorlikning o'ziga xos mahsuli bo'ldi.

Taassurot

Qahramonlar unutilmaydi

O'zbekiston fan va madaniyat arboblarning qardosh dalgoga tashrifi Boku

shaharning diqqatga sazovor maskanlaridan biri "Shahidlar xiyoboni" dan boshlandi.

"Shahidlar xiyoboni" Bokuning eng so'lim, bahavo qismida joylashgan. Ta'bir joiz bo'lsa, xiyobon shaharning eng fayzli, eng sokin, ayni paytda eng mahzun go'shasidir.



Ekspertlar: CHUQUR ILDIZGA EGA O'ZBEKISTON – XITOIY ALOQALARI IZCHIL RIVOJLANMOQDA

Xususan, ushbu mamlakatning nufuzli "Global Times" gazetasida bosilgan, nashr tahlilchisi Chjan Xan qalamiga mansub maqolada yozilishicha, "Bu tasodif emas. Bu eski do'stlar uchrashuvidir".

Xitoyning yetakchi ekspertlari baholariga ko'ra, O'zbekiston rahbarining Xitoyga mazkur tashrif har tomonlama tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston — Xitoy oliy darajadagi uchrashuvi o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra ham, mamlakatning turli metropoliyalarida — Pekin, Shenchjen, Shanxay va Urumchida o'tkazilgan qator yirik tadbirlarning keng geografiyasi bilan ham alohida ajralib turadi.

Birinchi, Prezident Shavkat Mirziyoyev va Rais Si Szingpin Qo'shma bayonotni imzolash orqali ikki tomonlama munosabatlarni yangi davrda har qanday sharoitda har tomonlama tarixiy sheriklik darajasiga olib chiqdilar. Xitoyning markaziy "Jenmin jibao" gazetasida ushbu muhim voqea sharhlanar ekan, XZR rahbari Si Szingpinning quyidagi so'zlari iqtibos sifatida keltirilgan: "32 yil avval O'zbekiston XZR bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatgan Markaziy Osiyodagi birinchi davlat bo'lgan edi. Ikki mamlakat xalqlarini qadimiy Buyuk Ipak yo'li bog'lab turadi, Xitoy — O'zbekiston do'stligi chuqur ildizga ega va zamonaviy bosqichda faol rivojlanmoqda".

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi ta'kidlagandek, o'tgan yetti yildan ortiq vaqt davomida turli sohalarda ikki tomonlama sog'lom va farovon munosabatlarni yo'lga qo'yish yo'lida hamkorlik qilindi. Xitoy va O'zbekiston o'rtasida yanada mazmunli va jalal munosabatlarni yo'lga qo'yish ikki mamlakat xalqlarining umumiy uzuridir.

O'zbekiston — Xitoy munosabatlarning prinsiplar jihatidan yangi bosqichga amalga oshirish soha va yo'nalishda keng ko'lamli amaliy hamkorlikni ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ushbu tashrif chog'ida ikki tomonlama sheriklikning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu nuqtayi nazardan, Shenchjen shahrida o'tkazilgan O'zbekiston — Xitoy investitsiya forumi tarixiy voqea bo'lib, uning ochilish marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev shaxsan ishtirok etdi.

Shenchjenda bo'lib o'tgan forum yakunlarini sharhlar ekan, "Ipak yo'li" tadqiqot markazi eksperti Guo Syaoszyun ushbu tadbirida ikki mamlakatning 600 dan ortiq yirik kompaniyalari vakillari qatnashganini ta'kidladi. Uning aytishicha, Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi forum qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi. Ishitirchilarning aksariyatida O'zbekiston bilan hamkorlikka qiziqish sezilarli darajada ortgani, shubhasiz.



Darhaqiqat, ushbu forum natijalari ajoyib bo'ldi. Shu tariqa, turli sohalarga oid mustahkam sarmoyaviy bitim va shartnomalar to'plamini imzolandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston rahbarining "CNPC", "CITIC Group", "China Southern Power Grid", "SANY Renewable Energy" kabi yirik kompaniyalar, shuningdek, Xitoy Eksimbanki, "Ipak yo'li" fond va Osiyo infratuzilim investitsiyalar banki rahbarlari bilan uchrashuvlarida hamkorlikning istiqbolli rejalarini belgilab olingi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "BYD" kompaniyasi bosh qarorgohi va texnologik markaziga tashrif chog'ida Jizzax viloyatida gidrid va elektr avtomobillarni yig'ish bo'yicha loyihani ishga tushirishga bag'ishlangan tantanalari marosimida ishtirok etdi.

Ushbu voqeani tarixiy, deb hisoblash mumkin. Bu, eng avvalo, "Yashil" Ipak yo'li konsepsiyasini amalga oshirish doirasida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Boshqa tomondan, ushbu obyekt Markaziy Osiyo va MDH davlatlarida elektromobillar ishlab chiqaradigan birinchi zavod bo'ldi.

Uchinchidan, O'zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashri fi doirasida o'tkazilgan asosiy tadbirlardan yana biri, bu Urumchi shahridagi O'zbekiston — Xitoy mintaqalar forumidir.

Unda ikki mamlakat hududlari rahbarlaridan tashqari, o'zaro hamkorlikning turli yo'nalishlari bo'yicha eng faol hamkorlikka tayyor bo'lgan 1200 dan ortiq kompaniyalar vakillari ishtirok etdi. Shu kuni Xalqaro ko'rgazmalar markazida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ko'rgazmasi ochilib unda O'zbekiston hududlarining turli sohalardagi yutuqlari va eksport salohiyati namoyish qilindi.

Ikki davlat hududlari rahbarlari mintaqalar hamkorlik sohasida amalga oshirilgan ishlar natijalari to'g'risida fikr almashdilar, shuningdek, savdo, sarmoya, iqtisodiyot, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalarda sheriklikni yanada rivojlantirish yo'llarini atrofi chika muhokama qilindi.

Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti yetakchi eksperti Su Chan forum ikki davlat rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida erishilgan muhim kelishuvlarni amalga oshirishda samarali platformaga aylanganiga ishonch bildirdi. O'zbekiston va Xitoy hududlari

bevosita samarali muloqot va o'zaro hamkorlik formulasini topdi.

Forum hududlararo hamkorlikning yuqori dinamikasini namoyon etib, yangi sur'at bag'ishladi. O'tgan yili O'zbekistonning barcha hokimlari Xitoyning yirik muzofotlariga tashrif buyurdi.

Shuningdek, Xitoyning Sinszyan, Shensi, Shandun, Szyansu, Anxoy, Szyansi, Guandun, Xubey va Ninsyaxueysiyki avtonom rayoni rahbarlari javob tashri fi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Forum doirasida O'zbekiston hududlari va XZR muzofotlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga doir 27 ta qo'shma hujjat imzolandi.

To'rtinchidan, davlatimiz rahbarining Xitoyga tashri fi doirasida ilk bor O'zbekiston — Xitoy ta'lim forumi o'tkazildi. Tadbir O'zbekistondagi 37 ta yetakchi universitet va mezbon mamlakatning 110 ta oliy ta'lim muassasasi rektorlari qatnashdi.

Natijada ikki davlat ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan Pekin deklaratsiyasi qabul qilindi. Jami ikki tomonlama 75 ta hujjat, jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarini shakllantirish bo'yicha muhim kelishuvlar imzolandi.

Pekindagi Yevrosiyo universiteti huzuridagi Yevrosiyo tadqiqotlari markazi direktori o'rinbosari Lyu Syui mazkur forum yakunlarini sharhlar ekan, O'zbekiston va Xitoy oliy o'quv yurtlari rektorlari yoshlarga aniq va gumanitar fanlarni o'qitishning zamonaviy uslublari yuzasidan fikr almashganini ta'kidladi. Universitet boshqaruvida zamonaviy usullar, jumladan, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektdan foydalanish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Xitoylik ekspertning fikricha, forum ikki davlat universitetlari o'rtasidagi o'ziga xos hamkorlik ko'prigiga aylandi. Ushbu mexanizm yaqin kelajakda multiplikativ samara berishga, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga shubha yo'q.

Beshinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning XZRga tashri fi doirasida tashkil etilgan muhim tadbirlardan yana biri, bu Xitoyda bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyati kunlaridir.



22-yanvar kuni O'zbekiston madaniyati kunlarining tantanalari ochilish marosimidan so'ng "Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi" nomli spektakl, 24-yanvar kuni esa O'zbekiston san'at ustalari ishtirokida gala-konsert bo'lib o'tdi. Shu bilan birga, Xitoy poytaxtida O'zbekiston tasviriy va xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi ochildi.

Xitoyning yana bir muhim g'o'shisi — Shanxayda Toshkent va Shanxay shaharlari o'rtasida birodarliq aloqalari o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanalari madaniy tadbirlar bo'lib o'tganini alohida ta'kidlash joiz. Ular doirasida "Bahor" ansamblining konsert dasturi hamda "O'zbekiston — Buyuk Ipak yo'li gavhari" sayyohlik salohiyati taqdimoti tashkil etildi. Toshkent va Shanxay o'rtasida 2024 — 2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturining imzolani shi muhim natija bo'ldi.

Xitoyda o'tkazilgan bir qator madaniy tadbirlar haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashar ekan, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti professo ri Li Yunxuey ularning

Natijada ikki davlat ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan Pekin deklaratsiyasi qabul qilindi. Jami ikki tomonlama 75 ta hujjat, jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarini shakllantirish bo'yicha muhim kelishuvlar imzolandi.

Pekindagi Yevrosiyo universiteti huzuridagi Yevrosiyo tadqiqotlari markazi direktori o'rinbosari Lyu Syui mazkur forum yakunlarini sharhlar ekan, O'zbekiston va Xitoy oliy o'quv yurtlari rektorlari yoshlarga aniq va gumanitar fanlarni o'qitishning zamonaviy uslublari yuzasidan fikr almashganini ta'kidladi. Universitet boshqaruvida zamonaviy usullar, jumladan, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektdan foydalanish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Xitoylik ekspertning fikricha, forum ikki davlat universitetlari o'rtasidagi o'ziga xos hamkorlik ko'prigiga aylandi. Ushbu mexanizm yaqin kelajakda multiplikativ samara berishga, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga shubha yo'q.

Beshinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning XZRga tashri fi doirasida tashkil etilgan muhim tadbirlardan yana biri, bu Xitoyda bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyati kunlaridir.

22-yanvar kuni O'zbekiston madaniyati kunlarining tantanalari ochilish marosimidan so'ng "Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi" nomli spektakl, 24-yanvar kuni esa O'zbekiston san'at ustalari ishtirokida gala-konsert bo'lib o'tdi. Shu bilan birga, Xitoy poytaxtida O'zbekiston tasviriy va xalq amaliy san'ati ko'rgazmasi ochildi.

Xitoyning yana bir muhim g'o'shisi — Shanxayda Toshkent va Shanxay shaharlari o'rtasida birodarliq aloqalari o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanalari madaniy tadbirlar bo'lib o'tganini alohida ta'kidlash joiz. Ular doirasida "Bahor" ansamblining konsert dasturi hamda "O'zbekiston — Buyuk Ipak yo'li gavhari" sayyohlik salohiyati taqdimoti tashkil etildi. Toshkent va Shanxay o'rtasida 2024 — 2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturining imzolani shi muhim natija bo'ldi.

Xitoyda o'tkazilgan bir qator madaniy tadbirlar haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashar ekan, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti professo ri Li Yunxuey ularning

Natijada ikki davlat ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan Pekin deklaratsiyasi qabul qilindi. Jami ikki tomonlama 75 ta hujjat, jumladan, qo'shma ta'lim dasturlarini shakllantirish bo'yicha muhim kelishuvlar imzolandi.

Pekindagi Yevrosiyo universiteti huzuridagi Yevrosiyo tadqiqotlari markazi direktori o'rinbosari Lyu Syui mazkur forum yakunlarini sharhlar ekan, O'zbekiston va Xitoy oliy o'quv yurtlari rektorlari yoshlarga aniq va gumanitar fanlarni o'qitishning zamonaviy uslublari yuzasidan fikr almashganini ta'kidladi. Universitet boshqaruvida zamonaviy usullar, jumladan, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektdan foydalanish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Xitoylik ekspertning fikricha, forum ikki davlat universitetlari o'rtasidagi o'ziga xos hamkorlik ko'prigiga aylandi. Ushbu mexanizm yaqin kelajakda multiplikativ samara berishga, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga shubha yo'q.

Beshinchidan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning XZRga tashri fi doirasida tashkil etilgan muhim tadbirlardan yana biri, bu Xitoyda bo'lib o'tgan O'zbekiston madaniyati kunlaridir.

"Dunyo" AA. Pekin



Bu tartib shu yil 1-iyuldan yo'li, ichimlik suvi va ko'prik qurilishi loyihalari joriy etiladi. Ushbu sohalarni korrupsiyadan xoli qilish maqsadida qurilishda tuziladigan barcha shartnomalar raqamlashtiriladi, pudratchi tashkilot bajorgan ishlar faqat soliq organiga taqdim etilgan elektron hisob-fakturadan kelib chiqib moliyalashtiriladi, obyektni foydalanishga qabul qilish jarayoni raqamlashtiriladi, dalolatnomalar "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida tasdiqlanadi.

Yig'ilishda barcha yo'nalishdagi loyihalarni qaytadan o'rganib chiqib, asosiy yechimlarni belgilab, boshidan xato-kamchiliklarning oldini olish va keyin tenderga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Loyiha institutlari bilan bu ishlarini tashkili qilamiz. Ushbu loyihalarning ekspertiza jarayonini ham zamonaviy asosda yo'lga qo'yish, kerak bo'lsa, xorijdan malakali mutaxassislarni jalb etish vazifasi yo'ldi.

Sohada shaffoflikni oshirish, hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga Loyiha ofisi tuziladi. U qiymati 10 milliard so'mdan yuqori loyihalarni ishlab chiqish jarayonida ularning asosligini, xavfsizlik va energiya tejamlarini baholab boradi. Ijtimoiy muassasalar va kommunal obyektlar bo'yicha namunaviy loyihalar ishlab chiqildi. Bundan buyun Loyiha ofisining tashiri fi bo'lmagan loyiha hujjatlari davlat ekspertizasiga qabul qilinmaydi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz ko'p qavatli uylarni samarali boshqarish bo'yicha ham boshqarish berdi. Hozirgi kunda "qizil" va "sariq" toifadagi boshqaruv kompaniyalari ham bor. Ularni "yashil" toifaga o'tkazish, aholimizga hozirgi kunga munosib yaxshi xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish belgilandi. Buning uchun boshqaruv kompaniyalari va shirkatlarining kreditlarini so'ndirish hamda debitor qarzdorligini qisqartirish choralarini ko'riladi.

Hozirgi kunda barcha ko'p qavatli uylar xonadonlari billing tizimiga ulangan. Unga asosan kommunal to'lovlar bo'yicha qarzdorlikni undirish bilan tegishli tashkilotlar shug'ullanib kelmog'ida. Davlatimiz rahbari to'pshirig'iga binoan endilikda elektr energiyasi, gaz, suv, issiqlik, chiqindi va soliq to'lovlari bo'yicha xonadonning yagona billing hisob raqami joriy qilinadi.

Yig'ilishda ko'p qavatli uylarni ta'mirlash, yerto'lovlarini tadbirkorlarga ijaraga berish

masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Endi bu boradagi ma'lumotlar ham raqamlashtiriladi. "Mening uyim" tizimiga bog'lanadi hamda aholi va tashabbuskorlarga ochiq e'lon qilinadi.

Azamat ZIYO, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, akademiki

— Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan yig'ilishda juda muhim masalalar ko'rib chiqildi. Uni, chindan ham, tarixiy deyimimiz kerakki, bu boradagi muammolar bir yoki o'n yilda paydo bo'lmagan. Ular uzoq yillar davomida yig'ilib kelgan va afsuski, o'z vaqtda yechimini topmagan. Shuning uchun ularni bugungi kunda bartaraf etish qiyinchilik bilan kechmoqda. Ochiqini aytadigan bo'lsak, o'tgan yetti yil davomida barcha ishlar yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasini ilgari surgan, tashabbusini ko'rsatgan va butun ishlariga bosh-qosh bo'layotgan Prezidentimiz sa'y-harakatlari bilan ro'yobga chiqmoqda. Davlatimiz rahbarining insonparvarlik siyosati, barcha sohada asosiy urg'uni insonga qaratgani o'laroq biz keyingi yetti yilda katta yutuqlarga erishdik.

Shu bilan birga, Prezidentimiz doim bir fikrni takrorlaydi: erishgan yutuqlarimiz o'zimiznikiki, endi oldinga qarab yurishimiz kerak.

Oldinga qarab yurishimiz uchun bizdan birdamlik, hamjihatlik talab qilinadi. Har bir fuqaro, ayniqsa, yetakchilar, turli darajadagi rahbarlar masalaga o'ta mas'uliyat bilan yondashishlari kerak.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda bir gapni aytdi: agarda rahbarning yuragi yonib turmasa, unda millatparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ulari bo'lmasa, uning o'nta diplomi bo'lsin, buning foydasi yo'q. Isohlotlar samaradorligini ta'minlashda rahbarlar zimmasida mas'uliyat katta. O'tgan yetti yil qo'limizdan juda ko'p ishlar kelishini ko'rsatdi. Haqiqatan ham, xoh iqtisodiyot bo'lsin, xoh ijtimoiy hayot bo'lsin, xoh tashqi siyosatimizda juda katta marralarga erishdik. Ularning ayrimlari ilgari odamlarning tushiga ham kirgan emas. Lekin insonning dunyoqarashi o'zgarishi masalasi hali qiladigan ishlarimiz ko'p. Prezidentimiz kuyinib gapirganidek, bu borada ko'p narsa rahbarlarga bog'liq, o'sha

sohaning yetakchilariga bog'liq. Eng muhimi, yangi O'zbekistonda olib borilayotgan siyosatni butun xalqimiz qo'llab-quvvatlayapti. Ya'ni xalqimiz o'zgarishlarga tayyor, endi katta-kichik rahbarlar buni qalbdan his qilib, kuyunchaklik va fidoyilik bilan ishlashi kerak.

Shuhrat SAIYOV, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademiki

— Yig'ilish juda keskin tanqid yil ruhida o'tdi. Unga yurtimizda havoning ifloslanishi, transport tizimi, ichimlik suvi bilan bog'liq muammolarning paydo bo'layotgani, ularni shu paytgacha muayyan dasturlar asosida hal etishga harakat qilingan bo'lsa, bu borada talab darajasidagi yutuqlarga erishilmayotgani ta'kidlandi. Bu masalalarda mutasaddilar, joylardagi rahbarlarning mas'uliyatini yetarli darajada his etmayotgani tanqid qilindi.

Darhaqiqat, oldimizda ko'ndalang bo'layotgan muammolar ayrim mas'ullarning o'z ishiga jiddiy yondashmayotganini, ularning vatanparvarligi jiddiy e'tirozlariga sabab bo'layotganini ko'rsatib turibdi. Shu nuqtayi nazardan, rahbarlarning mas'uliyatini oshirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish bu, birinchi navbatda, ularning siyosiy yetukligiga, ma'naviyatiga bog'liq deb o'ylayman.

Bugungi kunda rahbarlarimizni jiddiy o'ylantiradigan masala yurtimizning kelajagiga qaratilgan talldir bo'lishi kerak. Keyingi yillarda mamlakatimizning har tomonlama taraqqiy etayotgani, dunyo miqyosida o'zining munosib o'rniga ega bo'layotgani, ham tashqi, ham ichki siyosatda milliy manfaatlarimizni himoya qilish uchun davlatimizning juda katta kurash olib borayotgani hammaizga tushunarli bo'lishi lozim. Biz butun qadrlashimiz kerak. Mana shunday davrda barchamiz birlashib, qo'limizdan kelganicha o'z ishimiz bilan, so'zimiz bilan, fikrimiz bilan, amalmiz bilan bugun olib borilayotgan siyosatni joylarda tatbiq etish, targ'ib qilish, xalqimizga tushuntirishga hissa qo'shishimiz shart. Xoh katta lavozimda rahbar bo'lsin, xoh kichik, umuman, barcha el-yurtimiz farovonligi yo'lida bor kuchini safarbar etishni muqaddas burch deb hisoblashi maqsadga muvofiqdir.

"Xalq so'zi".

O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSİYASIDA

FAOLIYAT SARHISOBI VA USTUVOR YO'NALISHLAR MUHOKAMASI

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Bosh kengashining VII majlisi bo'lib o'tdi. Uni O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov olib bordi. Majlisda Federatsiya Nazorat-taftish komissiyasi, kasaba uyushmalari respublikada va hududiy kengashlari raislari, tasarrufdagi tashkilotlar rahbarlari, Federatsiya apparatining bo'lim mudirlari hamda mas'ul xodimlar ishtirok etdi. Dastlab "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha belgilangan vazifalarning o'tgan yil yakuni yuzasidan ijrosi hamda joriy yildagi asosiy vazifalari to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Ta'kidlangandek, yakunlangan yil kasaba uyushmalari uchun ham samarali bo'ldi. Xususan, Kasaba uyushmalari Federatsiyasining VIII qurolliyo qarorlaridan kelib chiqib, tizimdagi tashkilotlarni tomonidan ijtimoiy sheriklik ko'lamini oshirish, xodimlarning mehnat sohasidagi huquqlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib berish, ishchilar va ularning oila a'zolari o'rtasida madaniy-ma'rifiy, sport va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkili etishda tizimli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, hisobot davrida mehnatkashlarning ijtimoiy-mehnat sohasiga doir 150 ta normativ va normativ-huquqiy hujjat loyihalari yuzasidan takliflar berildi. Kasaba uyushmalari mehnat inspektorlari tomonidan korxonada va tashkilotlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayonida xodimlar manfaatlariga doir mehnat qonunchilik hamda normativ hujjatlar talablarining buzilishi bo'yicha aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi hamda kelib tushgan 4834 ta murojaatni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra jami 141 ming 783 nafar shaxsning huquqlari tiklanib, xodimlar foydasiga 64 milliard 696 million 300 ming so'm zarar undirishiga erishildi.

Ijtimoiy muloqot va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, mazkur yo'nalishda mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish doirasida ijtimoiy mehnat masalalari bo'yicha uch tomonlama komissiya ishida faol ishtirok etib kelinmoqda. Vazirlar Mahkamasi, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Ish beruvchilar

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'рни va nufuzini oshirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalash, gender tenglikni ta'minlashga ko'maklashish yo'nalishlarida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining "Ishonch telefoni"ga xotin-qizlardan tushgan 26864 ta murojaatda ko'tarilgan muammolar hal etilishida amaliy yordam ko'rsatildi.

O'tgan yilning 1-dekabr holatiga oltila toifa bo'yicha "ayollar daftari"ga kiritilgan 993 ming 386 nafar xotin-qizning muammolari hal etildi. Jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj aksariyat ishsiz xotin-qizning bandligi ta'minlandi, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun kreditlar ajratildi. Bundan tashqari, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash choralarini ko'rdi. Qaramog'ida nogironliligi bo'lgan farzandni mavjud xotin-qizlarga moddiy yordam berildi.

Davlat dasturi asosida shakllantirilgan Kasaba uyushmalari Federatsiyasining "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili" dasturi ijrosi uchun kasaba uyushmalari mablag'laridan 377 mlrd. 467,5 mln. so'm, ish beruvchilar mablag'laridan 176 mlrd. 756,9 mln. so'm yo'natildi.

O'tgan yillarda tizimdagi sanatoriyalar va ularidagi o'rnlarni oshirish bo'yicha olib borilgan ishlar bugunga kelib o'z natijasini bermog'ida. Xususan, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufidagi sanatoriyalar soni 31 taga, ularidagi o'rnlari 6753 taga yetdi. Bu esa yil davomida ushbu sanatoriyalarda 200 mingga yomon davm oluvchilarni imtiyozli va bepul yo'llanmalar asosida sog'lomlashtirish imkonini berdi.

Tizimdagi sanatoriyalarda nafaqat kasaba uyushmalari a'zolari, balki dam olishni istalgan barcha fuqaro, nuroniyalar va aholining boshqa toifalari o'z salomatligini yanada mustahkamlab kelmog'ida. Jumladan, tizimdagi sanatoriyalarda 209 nafar 1941 — 1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari va ularning kuzatuvchilari Davlat budjeti hisobidan bepul sog'lomlashtirildi. "Saxovat" internet uylari hamda urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatida istiqomat qiluvchi

keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga yo'llanmalar ajratildi. Tashkilotlarda ishlovchi pensionerlar hamda kasaba uyushmalari a'zolarining pensiyadagi ota-onalari imtiyozli, ishlaydigan pensionerlar bepul yo'llanmalar bilan ta'minlandi. Kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalarning ayollari, tibbiyot sohasi xodimlari hamda befarzand oilalarning ishlaydigan oila a'zolari uchun aksiyalar tashkili etilib, ularidan 888 nafari bepul yo'llanma bilan sog'lomlashtirildi.

Shuningdek, Mehrbonlik uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari tarbiyachilari, umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari hamda ta'lim rivojiga munosib hissa qo'shgan, davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan pedagoglardan qariyb 2 ming 130 nafari bepul yo'llanma bilan ta'minlandi. Bu hali hammasi emas. O'tgan yilgi yoz mavsumi davrida 1118 ta oromgoh faoliyati yo'lga qo'yilib, ularda 331 ming 711 nafar bola sog'lomlashtirildi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik dasturlari doirasida tojikistonlik 50 nafar o'g'il-qiz Farg'ona viloyatidagi "Tovul" oromgohida, qirg'izistonlik 50 nafar bola "Tong" oromgohida dam oldirildi. Qoraqalpog'iston Respublikasidan 3 ming, Xorazm viloyatidan 1 ming 500 nafar bolalar o'z hududlarining eng yaxshi stasionar turdagi oromgohlarida bepul sog'lomlashtirildi.

Tizimdagi sanatoriyalar va bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida o'rnlarni sonini ko'paytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash sohasidagi ishlar izchilik bilan davom ettirilmoqda. Xususan, hisobot davrida Surxondaryo viloyatining Sariosiy tumanidagi Sangardak qishlog'ida "Sangardak" sanatoriysi qurilib, foydalanishga topshirildi. Samarqand viloyatidagi "Iln ziyosi" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida kapital ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirildi. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Mehnat va ijtimoiy munosabatlarni akademiyasida talabalar uchun turarjoy binosi qurib berildi.

Shuningdek, bugungi kunda Qoraqalpog'istonning Bo'zatov tumanida yangi sanatoriyni qurish va jihozlash ishlarini, Xorazm viloyatida "Xonqo" sanatoriysi, Buxoro shahrida bolalar sog'lomlashtirish oromgohini qurish ishlarini amalga oshirilmoqda. Namangan viloyatidagi "Chortoq" sanatoriysi hududida ko'shimcha yotoq va davolash binolari, Toshkent shahridagi "Yakkasaroy" sport-sog'lomlashtirish majmuasida, Sirdaryo viloyatidagi "Yangiyer" sanatoriysi va Toshkent viloyatidagi "Ko'hinur" sanatoriysi hududida suzish havzasini qurish ishlarini jadal ketmoqda. Xalqaro kasaba uyushmalari birlashmalari, xorijiy davlatlarning kasaba uyushmalari markazlari bilan aloqalarni rivojlantirish orqali O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining xalqaro kasaba uyushmalari harakatidagi o'rni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar ham izchilik bilan davom ettirilaypti. Jumladan, o'tgan yili sentabrda Samarqand shahrida Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya va O'zbekiston milliy kasaba uyushma markazlari ishtirokida Turkiya davlatlari kasaba uyushmasi tashkilotining ta'is yig'ilishi o'tkazilishi, unda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisining tashkilot prezidentini etib saylanishi xalqaro faoliyatini rivojlantirish sohasidagi muhim voqea bo'ldi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi noyabrda yo'llangan vakillar o'tgan yili noyabrda Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan Turkiya davlatlari kasaba uyushmasi tashkilotining 1-kongressida ishtirok etdi. Federatsiyaga a'zo tarmoq kasaba uyushmalari tomonidan ham xorijiy davlatlarning turdosh hamda chegaroldi hududlari kasaba uyushmalari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik ko'lamini kengaytirish sohasida aniq maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirilyapti. Kasaba uyushmalari Federatsiyasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan xalqaro va milliy mehnat standartlarini joriy qilishga ko'maklashish sohasidagi ishlar ham tizimli ravishda davom ettirilmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkilotining 95, 131, 132, 156, 173 va 177-son

DEMOKRATIK ISLOHOTLAR VA ERISHILGAN NATIJALAR E'TIROFI

O'zbekiston ushbu bankning beshta asosiy hamkori qatoridan joy oldi va yillik investitsiyalar hajmi bo'yicha mamlakatimiz ETTBning Markaziy Osiyodagi eng yirik biznes sherigiga aylandi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan ETTB o'rtasida amalga oshiriladigan qo'shma tashabbuslarning yo'nalishlari ham muhokama qilindi.

Xususan, bankning O'zbekistonga oid strategiyasi doirasida yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish hamda innovatsiyalarni, biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilgan holda ularni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Shuningdek, gender tengligi masalalarida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanidan kelib chiqib, ETTB bilan birgalikda qishloq ayollarini kasb-hunarga o'rgatish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi.

Muloqot davomida O. Reno-Basso ETTBning kuni kecha tasdiqlangan 2024 — 2029-yillarga mo'ljallangan mamlakatimizga oid strategiyasi "O'zbekiston — 2030" strategiyasiga to'liq mos kelishi, unda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan iqtisodiyotni "yashillashtirish", inklyuzivlik va gender tengligi hamda

raqamlashtirish kabi ustuvor yo'nalishlar aks etganini alohida ta'kidlandi. Uchrashuvda Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida O'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Ushbu memorandum xotin-qizlarning mehnat bozorida imkoniyatlarini kengaytirish, bandlik sohasida gender muvozanatiga erishish hamda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, moliyaviy mustaqillikni kuchaytirilishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Munosabatlarimizning bugungi holati va istiqbollari

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri o'rinbosari lord Tarik Ahmad bilan uchrashdi.

Muloqotda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari atrofida muhokama qilinib, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, bank-moliya, madaniy-gumanitar yo'nalishlarda aloqalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, moliyaviy va texnologik sohalarda hamkorlikni

kengaytirish uchun ikki davlatning salohiyati yetarli. Bu borada amaliy mexanizm va tashabbuslarni ishga solish, jumladan, savdo vakillarini tayinlash orqali yangi loyihalarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

T. Ahmad O'zbekistonga "GSP Enhanced" umumiy imtiyozlar tizimini kengaytirilgan sxemasi benefitsiari maqomi berilganini alohida qayd etib, Britaniya bozorida talab qilinadigan mahsulotlar ekspordini oshirish istiqbollari ta'xtalib o'tdi.

O'z navbatida, T. Norboyeva Buyuk Britaniya ishlabarmon doiralari vakillarini 2024-yil may oyida bo'lib o'tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumiga taklif qildi.

Subhat davomida ta'lim sohasidagi hamkorlikka ham e'tibor qaratilib, O'zbekistonda Buyuk Britaniya yetakchi universitetlarining filiallarini ochish, malakali o'qituvchilarni jalb qilishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

Bugun butun dunyoda iqlim o'zgarishi masalasi dolzarbligidan kelib chiqib bu yo'nalishda yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, ayniqsa, qurg'oqchilik va suv tanqisligiga qarshi kurashish, bunda suv resurslarini boshqarish samaradorligini kengaytirish yo'nalishida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ham fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston va BAA: SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRISH YO'LLARI KO'RB CHIQILDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva kecha Birlashgan Arab Amirliklari Raqobatbardoshlik Kengashi raisi, Hukumat ishleri vazirining raqobatbardoshlik va bilim almashinuvi bo'yicha o'rinbosari Abdulla Nosir Lyutani qabul qildi.

Muloqot

Unda O'zbekiston bilan BAA o'rtasida ko'p qirrali aloqalarini, shu jumladan, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi munosabatlarni yanada rivojlantirish masalalari tahlildan o'tkazildi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasida hamkorlikning barcha yo'nalishida sezilarli yutuqlarga erishildi. Jumladan, o'zaro tovar ayirib olish hajmi 2022-yilda 2,1 barobar oshgan bo'lsa, 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan qariyb 21 foizga o'sgan, BAA ishtirokidagi korxonalar soni esa 300 taga yetdi.

Muloqotda bu borada Hukumatlararo qo'shma komissiyaning faoliyatini yanada kuchaytirish orqali savdo ko'rsatkichlarini yaxshilash zarurligi ham aytilib o'tildi.

Uchrashuvda xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda raqamli texnologiyalar yo'nalishlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida yoshlar bilan ishlash, ya'ni ularning ta'lim olishi va bandligini ta'minlash hamda ilg'or sohalarda o'tkaziladigan tadbirlarda ular ishtirokini kengaytirish, umuman, navqiron avlodning istiqboliga xizmat qiladigan aloqalarini yanada kengaytirish yo'llari ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA KENG IMKONIYATLAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi qizg'in muhokama qilindi. Shu bilan birga, Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilgan bir qator qonun loyihalari ko'rib chiqildi.

Yanada faol bo'lish — asosiy maqsad

Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23 — 25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi yukanlaridan kelib chiquvchi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Fraksiya rahbari Aktam Haitovning qayd etishicha, davlatimiz rahbarining Xitoyga tashrifi, shubhasiz, har iki mamlakat va ularning fuqarolari manfaatlariga qaratilgan hamkorlik uchun yangi uqfarni ochadi.

Yig'ilishda so'z olgan fraksiya a'zolari so'nggi yillarda o'zaro tovar ayirib olish hajmi ikki baravar, qo'shma korxonalar soni uch barabarga ko'payganini, tashrif davomida erishilgan natijalar O'zbekiston — Xitoy munosabatlarida yangi sahifa ochishini alohida qayd etdilar.

Muhokama davomida Prezidentimizning Xitoyga tashrifi yukanlaridan kelib chiqib, partiya va fraksiya o'ldida turgan ustuvor vazifalar belgilab olindi. Yig'ilishda "Baholash faoliyati yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi atrofida ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida uning bugungi kundagi zarurati va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Loyihadagi ayrim normalar bo'yicha bir qator takliflar ilgari surildi.

Fraksiya a'zosi Javlonbek Ergashevning aytishicha, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi baholash to'g'risidagi hisobotlarning ishonchligini tekshirishda muammolarni bartaraf etish, fuqarolarning ortiqcha xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi atrofida ko'rib chiqildi.

Munozaralar chog'ida har bir fraksiya a'zosi davlat dasturi loyihasini yanada takomillashtirish bo'yicha o'z takliflari, tavsiyalarini berish bilan birga, bu jarayonda yanada faol ishtirok etishi lozimligi ta'kidlandi.

"Ustoz" maxsus platformasi ishga tushiriladi

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi loyihasi muhokamasida ta'kidlaganidek, loyihaga ko'ra, joriy yil 1-martdan boshlab "Yoshlar balansi" asosida alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar vazirlik va idoralar, mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga biriktiriladi.

Shu bilan birga, "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida 2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta'lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar tizimida mukofot jamg'armasi 600 million so'm miqdorida xorijiy tillar ("Ibrat farzandlari") musobaqasi, kibersport va "Zakovat" intellektual o'yinlarini yuqori saviyada tashkil etish, kasblar tanlovida g'olib bo'lgan yoshlarni o'z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan Yoshlar ishleri agentligi va mahalliy hokimliklar "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'minlash amaliyotini yo'lga qo'yish belgilanmoqda.

Qizg'in savol-javoblar davomida fraksiya a'zolari farmon loyihasi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2024-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan har bir vazifani sinchiklab tahlil qildi.

Deputatlar mazkur masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirar ekan, davlat dasturi loyihasida belgilanayotgan ustuvor vazifalar partiya dasturiy maqsadlariga uyg'un va hamohang ekanligini qayd etdilar.

Xususan, dastur loyihasida "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'laridan yoshlarni chet tillar va kasb-hunarga o'qitish maqsadlariga yo'naltirishni yo'lga qo'yish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha "Ustoz" maxsus platformasini ishga tushirish va dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 150 ming nafar yosh qamrab olinishini ta'minlash nazarda tutilgani deputatlar tomonidan e'tirof etildi.

Yangi o'zgartirishlar kiritilmoqda

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof ravishda muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokama etildi.

Munozaralar davomida deputatlar mazkur qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirib, u bilan qanday o'zgartirish kiritilayotganiga qiziqdi.

Qonun tashabbuskorlarining aytishicha, qonun loyihasi bilan giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni yovuga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun ma'muriy va jinoyat javobgarlik belgilanyapti.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari tomonidan berilgan aksariyat takliflar loyiha matnida aks etadigan bo'ldi.

Deputatlar qonun loyihasining zarurati va ahamiyatini e'tiborga olib, qizg'in munozaralardan so'ng uni qo'llab-quvvatladilar.

E'tirozlar bartaraf etiladi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bir qator qonun loyihalari bilan birga, baholash faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ham atrofida ko'rib chiqildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mazkur hujjat orqali muammoli holatlarni bartaraf etish mo'ljallangan.

JAZO YENGILLASHTIRILYAPTIMI YOKI OG'IRLASHTIRILYAPTI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqinda bo'lib o'tgan majlisida migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasini takomillashtirish maqsadida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirishlar kiritilishi nazarda tutilgan qonun loyihasi eng ko'p munozaralarga sabab bo'ldi.

Fikr

Qizg'in muhokama qilingan qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini, identifikatsiyalovchi ID-kartasini va (yoki) xorijga chiqish uchun biometrik pasportini qanday tarafdorlar qo'llab-quvvatlaydigan yoxud uni ehtiyoq qilib saqlamaganligi oqibatida yo'qotib qo'yishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarosining va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning harakatlanish hujjatini va (yoki) identifikatsiyalovchi ID-kartasini

(O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi) qasddan yaroqsizlantirishi yoxud uni ehtiyoq qilib saqlamaganligi oqibatida yo'qotib qo'yganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari darajasida jarima qo'llash belgilanmoqda.

Tashabbuskorlarning fikricha, ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi bir qator jarimalar maqbulashtirilmoqda, ya'ni liberalashtirilmoqda.

To'g'ri, bir qarashda shunday tuyulishi mumkin. Biroq loyihani sinchiklab ko'rish jarayonida ayrim normalar bo'yicha e'tirozlar kelib

chiqmoqda. Masalan, ushbu qonun loyihasida ma'muriy javobgarlik choralari aslida amalga olingan ko'ra og'irlashtirilayotganiga yaqqol sezilib turibdi. 223-moddada ikki qismga ajratilyapti. Birinchi qismda pasportning muddati o'tgani yoki ma'lumotlari o'zgarгани sababli almashtirish masalasi BHMning bir baravari miqdoridagi jarima ko'zda tutilmoqda. Amaldagi tartibda 0,5 dan 3 baravarigacha edi. Moddaning 2-qismida pasportni yo'qotib qo'ysa yoki qasddan shikast yetkazsa, BHMning 2 baravari miqdorida jarima ko'laniladi, deyilyapti. Amalda esa bu holatda ham 0,5-3 baravargacha edi.

Amaliyotdagi holatlar tahlil qilinganda, bu turdagi javobgarlik uchun asosan, BHMning 0,5 miqdorida jarima ko'lanilgan. Endi esa yarim oklad bo'lib turgan jarima 4 baravarga

oshirilyapti. Nazarimda, bu noto'g'ri. O'ylashimcha, amaldagi BHMning 0,5 baravari holatida qoldirish, agar takrorlansa, miqdorini oshirish lozim.

Muhokama chog'ida ikkinchi muhim masala ko'tarildi. Xususan, deputatlar loyihadagi pasportni qasddan yaroqsizlantirganlik uchun javobgarlik belgilangan, lekin qasddan emas, ehtiyoqsizlik oqibatidagi holatda fuqaroga qanday javobgarlik ko'zda tutilgani bilan qiziqdi. Lekin qonun tashabbuskorlaridan asosli javob bo'lmadi.

Shu sababli hamkasblarimiz qonun loyihasida "qasddan" va "ehtiyotsizlik tufayli" degan normalarni loyihada alohida-alohida ko'rsatishni taklif etdi.

Aytish kerak, bugungi kunda fuqarolarimizning deyarli hammasi fuqarolik pasportlarini ID-kartaga almashtirib bo'ldi. To'g'ri, ilgari

yo'qotilgan pasportlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish imkoni bor edi. Lekin hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda buning imkoni yo'q.

Yana bir muhim masala. Qonun loyihasida ID-karta egasi uni yo'qotqandagina yoki ehtiyoqsizlik tufayli yaroqsiz holga kelganda ikki baravar jarima to'lash belgilanyapti. Nega endi ID-kartani rasmiylashtirib olishda to'lov to'lagan fuqaro o'z mullukini yo'qotqandagina ham jarima to'lashi kerak? Bu jazo kerakmi? Lekin qonun tashabbuskorlari jim. Shaxsning ma'muriy jazoni olib tashlash tarafdorim.

Qonun loyihasi keyingi o'qishlarda qabul qilinishi yoki rad etilishi esa vaqt ko'rsatadi.

O'ktam ISLOMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Senat qo'mitalarida

TADBIRKORLARGA SOLIQ IMTIYOZLARI BERILADI

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi majlisida dastlab "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Senatorlar, ekspertlar, tegishli vazirlik va idoralar vakillari qatnashgan tadbirga muhokama etilayotgan qonun ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirish va kamxaraj oilalar a'zolarining bandligini ta'minlashga qaratilgan alohida ta'kidlandi.

Qonun bilan Prezidentimiz tashabbusiga ko'ra joriy etilgan "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari sonidan kelib chiqib, ularga soliq imtiyozlari berilmog'da.

Jumladan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yangi ish o'rinlari soniga qaratib qo'shilgan qiymat solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tashqari barcha soliq turini o'n ikki oygacha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi.

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini

bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikrooliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun ham ko'rib chiqildi.

Qonun bilan Fuqarolik kodeksi hamda "Nobank kredit tashkilotlari va mikrooliyavlashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmog'da.

Xususan, Fuqarolik kodeksi yangi norma bilan to'ldirilmoqda. Unga ko'ra, kredit bo'yicha qarzdorlikni va hisoblangan foizlarni undirish haqida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda kredit bo'yicha foiz va neustoykalar hisoblanishi to'xtatilishi belgilanmoqda.

Shuningdek, "Nobank kredit tashkilotlari va mikrooliyavlashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonunga jismoniy shaxs bo'lgan qarz oluvchiga ajratiladigan mikroqaraj miqdori 50 million so'mdan 100 million so'mga oshirilmoqda.

AHOLI IJTIMOY HIMOYASIGA OID QONUNLAR Tahlili

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi ishchi guruh majlisida 2 ta qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga fuqarolarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan "Ijara to'g'risida"gi Qonunga ijarachining negiron bo'lib qolganligi ijaraga shartnomasini tugatish uchun asos bo'lishini bekor qilishni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmog'da.

"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga binoan esa ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning jazoni ijo etish muassasalarida jazoni o'tash davrida bajarilgan har qanday ishi, agar ushbu ish bajarilgan davr uchun jazoni ijo qilish muassasasi tomonidan ijtimoiy soliq to'langan bo'lsa, ushbu faoliyat turini pensiya olish huquqini beradigan ish staji toifasiga kiritish nazarda tutilmoqda.

Shu qonunga kiritilayotgan yana bir yangilikka ko'ra, pensiya ta'minotini so'rab murojaat etish tartibi takomillashtirilib, fuqarolarning pensiya tayinlash uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish huquqi nazarda tutilmoqda. Ayni chog'da pensiya miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlardan o'z bo'lishi mumkin emasligi belgilanayotir.

Majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish

to'g'risida"gi qonun ham qizg'in muhokamadan o'tkazildi.

U bilan "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunga retpsepts beriladigan dori vositalarining ro'yatini Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlash amaliyotini bekor qilishni nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritilyapti.

Qolaversa, "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan yangiliklarga asosan, Sog'liqni saqlash vazirligi dori vositalarini retpsepts bilan dori vositalarini retpsepts beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibini tasdiqlash vakolati berilmog'da hamda dori vositalari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan dori moddalarini davlat ro'yatidan o'tkazish amaliyoti bekor qilinmoqda.

Bundan tashqari, "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonunga kiritilayotgan o'zgartirishlarga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim prekursorlarni qonunda nazarda tutilgan maqsadlarda ishlab chiqarish va tayyorlash yuridik shaxslar tomonidan ularni muayyan prekursorlarni ishlab chiqarish hamda tayyorlash uchun litsenziyalar majburiyatida taqdirga faqat O'zbekiston Respublikasi ehtiyoji doirasida amalga oshirilishi belgilanmoqda.

Majlis ishtirokchilarining aytishicha, bu qonun aholi va tadbirkorlik subyektlarining tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat berilgan dori vositalari to'g'risidagi xabardorlik darajasini oshirish va investorlarni jalb etish uchun sharoit yaratish hamda kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga xizmat qiladi.

"YO'L XARITASI" QANDAY IJRO QILINMOQDA?

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi majlisida dastlab "Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiyaga qabul qilish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Muhokama chog'ida Konvensiyadan ko'zlangan maqsad mehnatkashlar manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga qat'iy rioya etgan holda ish haqi to'lanishini ta'minlashga qaratilgan xalqaro huquqiy bazani yaratish ekanligi ta'kidlandi. Ayni chog'da milliy qonunchilikning Konvensiya qoidalarga muvofiqligi, uni ratifikatsiyaga qabul qilinishi, xalqaro natija va amalga oshirish mexanizmlari ko'rib chiqildi.

Senatorlar Konvensiyaning ratifikatsiyasini milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda xalqaro mehnat standartlarini samarali joriy etishni ta'minlashga xizmat qilishini va O'zbekistonning mehnatkashlar huquqlari kafollatlarini ta'minlash bo'yicha asosiy xalqaro tamoyil va standartlarga sodiqligining namoyishi bo'lishini qayd etdilar.

So'ngra Oliy Majlis Senati Kengashining 2023-yil 5-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish va ularga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" ijrosiga mas'ul bo'lgan vazirlik va idoralar axborotini ehtiyojini ta'minlashga qaratildi.

E'tirof etilganidek, "Yo'l xaritasi" bo'yicha salmoqli ishlar bajarilgan.

Xususan, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazani yanada takomillashtirish, zonalar rezidentlari tomonidan import qilinadigan

xomashyo hamda eksport mahsulotlarini bo'yxonada tartibga solishga doir takliflar ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasi qabul qilindi.

Bundan tashqari, Turkiya, Vengriya, Rossiya, Eron va boshqa xorijiy mamlakatlar kompaniyalari bilan elektr texnikasi va avtomobilsozlik sohasida investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish yuzasidan muzokaralar olib borilgan va dastlabki kelishuvlarga erishilgan.

Majlisda senatorlar "Yo'l xaritasi"ning bir qator bandlari to'liq va o'z vaqtida bajarilmagan uchun mas'ul idoralarni tanqid qildi. Masalan, MIZni o'rta muddatli istiqqolda tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari rejasini Energetika vazirligi tomonidan haligacha tasdiqlanmagan. MIZning bo'sh turgan va foydalanilmayotgan bino va inshootlar Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan xatlovdan o'tkazilmagan.

Tadbirida senatorlar tomonidan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini xorijlik ekspertlar tavsiyalarini asosida takomillashtirish zarurligi ham bildirildi.

Majlisda ko'rilgan masalalar yuzasidan Senat qo'mitalarining tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori va Kasaba uyushma qo'mitasi universitetning moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari doktori, professor AKTAM

DO'STLIK, QARDOSHLIK VA HAMJIHATLIK

U yerda Vatan ozodligi uchun jon bergan istiqbol fidoyilarining xohi mangu qo'lim topgan. Turnaqator saf torgan marmar sa'nalarning har biri ostida ayri bir taqdir, eng muhimi, asrlarga ta'kidlik markid va jasorat timsollari yotibdi.

...1990-yil 20-yanvar kuni o'z haq-huquqlarini, milliy mustaqilligini talab qilib, namoyishga chiqqan Boku aholisi ustiga sobiq imperiya qo'shinlari yurish qilgan edi. O'nlab, yuzlab begunoh insonlarning qoni to'kildi. Ular Vatan ozodligini ko'ra olmay, armon bilan ko'z yumgan edi. Vaqti kelib, haq joyida qaror topdi. 1991-yil 18-oktabrda Ozarbayjon o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi.

Ammo yurt osmondagi qora bulutlar tarqamagan edi. O'tgan asrning 80-yillarida boshlangan Tog'li Qorabog' mojarolar hamon davom etardi. Ikki xalq orasidagi nizolar ozar elining boshiga bitmas-tuganmas kulfaltlar keltirdi. Shu yurtning 20 mingdan ziyod farzandlari qonli mojarolarning qurboniga aylandi. Ona yurtning bir parchasi — Tog'li Qorabog' va unga tutash hududlar ozodligi uchun boshini tikkan erksevar shahidlarimiz bir qismi shu maskanda dafn qilindi. Ana shunday qahramon farzandlar jasorati va qahramonligi evaziga 30 yildan ko'proq davom etgan ishg'oldan so'ng Ozarbayjon o'zining azaliy yerini qaytarib oldi.

Endilikda bu yerda Vatan erki uchun jon fido qilgan shahidlarga sharafiga muhtasham yodgorlik majmuasi ko'kka bo'y cho'zib turibdi. Xiyobondan ziyoratdilar qadami uzilmaydi. Mamlakatga tashrif buyurgan oliy martabali mehmonlar Boku ziyoratini aynan shu qadamjondan boshlaydi.

Bu xiyobondagi muhim qadamjoldan biri Ozarbayjon xalqining umummilliy rahbari Haydar Aliyev ziyoratgohidir. O'tgan yil Haydar Aliyevning 100-yilligi Ozarbayjonda va boshqa ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham keng nishonlandi. Haydar Aliyev o'zbek xalqining ham sodiq do'sti edi. U mamlakatimizga bir necha bor tashrif buyurgan, ikki xalq do'stligining yangi pog'onalariga ko'tarilishiga katta hissa qo'shgan.

"Xalqlarimizning tarixida umumiy jihatlari... — degan edi Haydar Aliyev 1979-yilda Ozarbayjonda o'tgan O'zbekiston madaniyati dekadasi... — ularning qismati, taqdiri ham bir. Ular asrlar bo'yi mustaqillik, ozodlik va baxt-saodat uchun hamjihatlikda kurashganlar. Bu kurashlar buyuk shoirimiz Nizomiy, Navoiy va boshqa buyuk so'z ustalari tomonidan mahorat ila tarannum etilgan".

O'zbekistonlik mehmonlar ham ushbu xiyobonni ziyorat qilib, bu yerda dafn etilgan millat farzandlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Shuningdek, Ozarbayjon xalqining umummilliy rahbari Haydar Aliyev qabriga ham gullar qo'yildi.

Tarix va bugun tutashgan zamin

...Yakshanba kuni Bokuga chiqdik. Shaharning rus va musulmon qismidagi do'konlar, katta korxonalar va mag'ozalari, matbaalari tamoman ochuq... Boku ko'rgonimga o'n besh sana bo'ldi. O'ndan beri xiyla vus'at topib, imoratlari besh-olti tabaqagacha yuksalibdur. Dengiz kanorida yangi besh taabaqlik katta bir imorat bor ekani...

Milliy uyg'inish davrining yetuk namoyandasi, Turkiiston jadidlarining peshvasi Mahmudxo'ja Behbudiy "Oyina" jurnalining 1914-yildagi 35-sonida Boku ana shunday ta'riflagani. Oradan bir asrdan ziyod vaqt o'tdi. Zamonlar, tuzumlar o'zgaradi. Bugungi Boku tom ma'noda XXI asr ta'madunining barcha xususiyatini o'zida mujassam etgan yirik megapolisga aylangan. Endilikda bu yerda nafaqat besh-olti, balki o'nlab qavatli osmono'par binolarini, yangidan-yangi imoratlarini, Sharq va G'arb me'morchilik an'analari asosida bunyod etilgan muhtasham inshootlarni ko'rish mumkin.

Kaspiy dengizi bo'yida, Apsheron yarimorolida joylashgan bu gozal shaharda 3 milliondan ziyod kishilar istiqomat qiladi. Ozar va o'zbek xalqlarining munosib farzandi, sevimli shoirimiz Maqsdul Shayxzoda Bokuni Kaspiy dengizining labiga qo'ngan nafis xolga o'xshatganida batamom haq edi.

Bokuning qadimiy qismi "Icheri shahar" nimasi bilandir Xivadagi "Ichan qal'a" majmuasini yodga soladi. Bu yerdagi tarixiy manzaralar "Arshin mol-olon", "Odam amfiyab", "Brilliant qo'l" singari nodir filmlar orqali ham bizga yaxshi tanish. Qadimiy qal'a devorlari, Shirvonshohlar saroyi, maqbara va madrasalar, baland minoralar va gumbazlar, qadimiy ko'rinishni saqlab qolgan uylar va ko'chalar sizni bir zum olib tarixga yetaklaydi.

"Icheri shahar"dagi eng muhtasham, betakror obidalaridan biri dengiz qirg'og'ida qad rostlagan Qiz qal'asidir. Bu me'moriy obida Ozarbayjonning, ozar xalqining milliy iftixori, tarixiy qadriyatlar timsoliga aylanib ketgan, desak, xato emas. Mam'lumotlarga qaraganda, qal'a dastlab zar'dushtylar uchun o'tashgoh vazifasini o'tagan. Qal'aning quyi qismida maxsus ma'nqallarda muqaddas olovlar muntazam yonib turgan. Qal'a atrofidagi olib borilgan ta'dqiqotlar davomida tunu kun o'chmaydigan muqaddas olov va ma'nqal qoldiqlari topilgan.

Qal'adan taxminan yigirma — o'ttiz metrlar berioqda ikkita karvonsoy qad rostlagan. Qizig'i, ularning biri "Buxoro karvonsoyiy"

deb nomlanar ekan. Hozir bu obida ichida milliy taomlar tayyorlanadigan maxsus yemakxona joylashgan. Hovida kichkina marmar hovuz, uning atrofidagi esa asriy chinorlar... Karvonsoy qurilishi, me'moriy ko'rinishi jahondan rostdan ham Buxorodagi tarixiy yodgorliklarni esga soladi.

Parlamentlar aloqalar yanada kengayadi

Fan va madaniyat kunlari doirasida 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov boshchiligidagi delegatsiya azolari Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisining O'zbekiston bilan parlamentlararo aloqalar bo'yicha ishchi guruhi a'zolari bilan uchrashdi. — Ikki mamlakat rahbarlari boshchiligidagi do'stona munosabatlarni chuqurlashtirishda parlamentlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi, — dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov. — Zero, bugungi global o'zgarishlar sharoitida xalqaro platformalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni davom ettirish katta o'rinni tutadi. Ozarbayjon va O'zbekiston munosabatlari muvaffaqiyatli rivojlanib borayotir. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va qardoshlik aloqalarini yanada kengaytirishda bundan keyin ham bor kuch-g'ayrat va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ozarbayjon Milliy Majlisi Intizom komissiyasi raisi, parlamentlararo aloqalar bo'yicha ishchi guruhi rahbari Eldor Ibrohimov Ozarbayjon — O'zbekiston qardoshlik munosabatlari ko'p asrlik tarixga ega ekanini, har ikki mamlakatda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilayotganini ta'kidladi.

— O'zbekiston rahbariyatiga Ozarbayjonning hududiy yaxlitligini doimo qo'llab-quvvatlab kelayotgani uchun minnatdorlik bildiramiz, — dedi Eldor Ibrohimov. — Yaqinda ishg'oldan ozod qilingan Fuzuliy shahrida O'zbekiston tomonidan bunyod etilgan zamonaviy maktab binosi ham xalqlarimiz o'rtasidagi mustahkam do'stlik ramzi bo'lib qoladi.

Shundan so'ng O'zbekiston bilan parlamentlararo aloqalar bo'yicha ishchi guruhi a'zosi Javansher Poshozoda va O'zbekistonning Ozarbayjondagi elchisi Bahrom Ashrafxonov so'zga chiqib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish yuzasidan o'z fikrlarini bildirdi.

Qo'lyozmalar yonmaydi

Shu kuni Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasining Muhammad Fuzuliy nomidagi Qo'lyozmalar institutida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati tashabbusi bilan "O'zbekiston — Ozarbayjon: madaniyatlarning mulqoti" mavzuida davra suhbat o'tkazildi. Unda har ikki mamlakatning qator olimlari, mutaxassislari, tegishli idora va tashkilotlar vakillari qatnashdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlari qatorida Ozarbayjondagi bir qancha muzey va kutubxonalar, ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilib keladi. Mazkur jamiyat tomonidan har yili muntazam o'tkazilayotgan kongress va anjumanlarda Ozarbayjon olimlari faol ishtirok etayotir.

— O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi madaniy aloqalar uzoq tarixga ega, — deydi O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati tashabbusi bilan "O'zbekiston — Ozarbayjon: madaniyatlarning mulqoti" mavzuida davra suhbat o'tkazildi. — Yaqinda ikki mamlakat olimlari ishtirokida "O'zbekiston madaniy merosi" turkumidan Ozarbayjonda saqlanayotgan madaniy merosimiz namunalariga bag'ishlangan yangi jild nashr qilindi. Mazkur kitob-albomda Muhammad Fuzuliy nomidagi Qo'lyozmalar instituti, Ozarbayjon tarixi muzeyi, Tasviriy san'at muzeyi, Milliy gilam muzeyi singari muassasalarda saqlanayotgan O'zbekistonga oid osoriatqalar haqida hikoya qilinadi.

— Institutimizda O'zbekiston zaminini bilan bog'liq qo'lyozmalar ko'p, — deydi Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar instituti direktori, akademik Teymur Karimov. — Jumladan, Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy merosiga mansub o'nlab qo'lyozmalarini sanab o'tish mumkin. Turk dunyosining bu buyuk siymolari biz, ozarbayjon xalqi uchun ham nihoyatda qadri, bu ulug' mutafakkir merosi durdonalari fondimiz xazinasidan joy olgani bizga ham iftixor bag'ishlaydi.

Tadbirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti direktori, akademik Shuhrat Egamberdiyev, O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati a'zosi, san'atshunoslik fanlari doktori Elmira Gyul, Ozarbayjon Milliy gilam muzeyi direktori Shirin Malikova, Qo'lyozmalar instituti yetakchi ilmiy xodimi Azizog'a Najafov va boshqalar mazkur kitob-albomning mazmun-mohiyati, Ozarbayjon to'plamlaridagi O'zbekiston madaniy merosi durdonalarining o'ziga xosligi xususida o'talib o'tdi.

Tadbirda ishtirok etgan O'zbekiston Oliy

Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinbosari Akmal Saidov ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona aloqalarini chuqurlashtirishda "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" loyihasining tutgan o'rni haqida gapirib, bu borada samarali faoliyat ko'rsatayotgan ozarbayjonlik olimlar va ta'dqiqotchilarga Butunjahon jamiyati nomidan tashakkurnomalarini topshirdi.

Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Muhammad Fuzuliy nomidagi Qo'lyozmalar institutiga "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" turkumidagi kitob-albomlarning 50 jildi tuha qilindi.

Tadbir ishtirokchilari ushbu institutda saqlanayotgan O'zbekistonga oid qo'lyozmalar ko'rgazmasi bilan ham tanishdi.



“...2019-yilda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan turkiy tilli davlatlarning har birida “Turkiy adabiyot durdonalari” ning yuz jildligini chop etish taklifi berilgan edi. Bu tashabbusni birinchi bo'lib o'zbekistonlik yozuvchilar va noshirlar amalga oshirdi. Qisqa vaqt ichida o'zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg'iz, venger adiblari asarlarini o'z ichiga olgan yuz jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari” chop etildi. Shundan 16-jildi bevosita Ozarbayjon adabiyoti durdonalariga bag'ishlangan.”

Mazkur ko'rgazmada Ibn Sinoning 1258-yilda ko'chirilgan "Tib qonunlari", Alisher Navoiy hayotidagi kitob-qilingan "G'aroyib us-sig'ar" devoni, "Buburnoma"ning XVII asrga mansub nusxasi va boshqa o'nlab nodir qo'lyozmalar o'rinda olgan.

Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasidagi uchrashuv chog'ida O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati tomonidan nashr qilingan "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar" kitob-albomlari, shuningdek, tarixiy shaxslar aks etgan Sharq miniaturalarining faksimil nusxalari ham taqdim qilindi.

— Biz o'zbekistonlik olimlar bilan barcha sohada, jumladan, tarixiy qo'lyozmalarini atroflicha o'rganib, ta'dqiq etishda ham hamkorlik qilaymiz, — deydi Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi prezidenti, akademik Iso Habibbeyli. — O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida qator o'zbek olimlari ham borligi meni nihoyatda mamnun etdi. O'yaymizki, ilmiy doiralarda o'rtasidagi hamkorlik mamlakatlarimiz taraqqiyotida muhim o'rinni tutadi.

Kino san'atimiz o'zaro uyg'un

Ozarbayjon kino ustalari tomonidan yaratilgan "Arshin mol-olon", "Qaynona", "Ahmad qayerda?" singari o'lmas filmlarni o'zbek tomshobabinlari bugun ham ayiricha zavq-shavq ila tomosha qiladi. "Tohir va Zuhra", "Toshkent — non shahri", "Sen yetim emassan", "Toylar muborak" kabi o'zbek kino asarlari qardosh tomshobabinlar uchun ham qadrdon bo'lib qolgan. O'zbek kino ustalari tomonidan suratga olingan filmlarda Turiel Gasimov, Rasim Balayev singari Ozarbayjon san'at ustalari, ozarbayjon filmlarida O'lmas Alixo'jayev, Oydin Norboyeva, Tamara Shokirova singari aktyor va aktrissalarimiz ishtirok etgan.

— O'zbek va ozarbayjon madaniy aloqalarida ikki xalq kino ijodkorlari hamkorligi alohida o'rinni egallaydi, — deydi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi direktori

F. Abdullxoliqov. — Keyingi yillarda ham ozarbayjonlik hamkasblarimiz bilan ijodiy aloqalarimiz davom etmoqda. Ozarbayjon kino ustalari 2021-yilda qayta tiklangan Toshkent xalqaro kino festivalida muntazam ravishda faol qatnashib kelmoqda. O'tgan yilning oktabr oyida Ozarbayjonning Shusha shahrida o'tkazilgan "Qo'rqut ota" turk dunyosi kino festivalidagi bizning ishtirokimiz ham muvaffaqiyatli kechdi. Har ikki mamlakatda kino kunlarini o'tkazish yaxshi an'ana aylandi. Bugungi tashrifimizda ozarbayjonlik hamkasblarimiz bilan hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha muzokaralar olib bordik.

25-yanvar kuni Boku shahridagi Haydar Aliyev markazida o'tkazilgan

tantanalı kechada O'zbekiston Kinematografiya agentligi buyurtmasiga asosan, rejissyor Eldar Mamedov suratga olgan "Abadiy do'stlik va qardoshlik" filmi namoyish qilindi. — Shuningdek, ikki mamlakatning Madaniyat vazirlıkları huzuridagi Kinematografiya agentliklari o'rtasida buyuk adib, dramaturg va olim Maqsdul Shayxzoda hayoti hamda faoliyatiga bag'ishlangan badiiy filmni hamkorlikda suratga olish bo'yicha memorandum imzolandi.

Ta'kidlash joizki, Maqsdul Shayxzoda ko'plab adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan. Uning betakror she'rlari, dramalari, ilmiy asarlari xalqimizning ma'naviy mulkiga aylangan. Prezidentimiz tashabbusi bilan bunyod etilgan Adiblar xiyobonida adibning haykali o'rnatildi. Kinematografiya agentligi hujjati va xronikal filmlar studiyasida Maqsdul Shayxzodaga bag'ishlangan hujjati filmlar yaratildi. — Maqsdul Shayxzoda xalqlarimiz do'stligi va qardoshligining o'ziga xos timsoli, — dedi Ozarbayjon Kinematografiya agentligi direktori Orxan Fikratog'li. — Biz o'zbek

kino ustalari bilan qator loyihalar bo'yicha hamkorlik qilaymiz. Bugungi memorandum asosida suratga olinadigan "Maqsdul Shayxzoda" badiiy filmi uzoq yillik tarixga ega bo'lgan ijodiy hamkorligimizning o'ziga xos mahsul bo'lishiga ishonamiz.

“Emas oson bu maydon ichra turmoq...”

Azaliy aloqalar haqida gap ketganda, mumtoz adabiyotimiz xususida to'xtalmay iloj yo'q. Nazm mulkining sultoni Hazrat Alisher Navoiy buyuk Sharq mutafakkiridan biri Nizomiy Ganjaviniy o'z ustozlaridan biri sifatida e'tirof etgan. Ulug' shoir "Xamsa"dagi ikkinchi doston "Farhod va Shirin"da yozadi: *Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq.* Shuningdek, ulug' bobokalonimiz Qosim Anvor, Sayyid Imodiddin Nasimiy singari ozar adabiyotining yetuk namoyandalari ijodiga yuksak hurmat ila yondashgan. O'z navbatida, ozarbayjon mumtoz adabiyotining yana bir atoqli vakili Muhammad Fuzuliy hazrat Navoiyning izdoshlaridan sanaladi. Fuzuliy "Layli va Majnun" dostonida buyuk o'zbek mutafakkiri nomini hurmat bilan tilga olgandi:

O'lmishdi Navoiy suxandon Manzuri shahanshahi xuroson. Bir paytlar O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov Boku shahridagi Fuzuliy haykali qoshida ushbu misralarni bitgandi: *Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan, Semavo bulbulalar, sayramang biroz, Karbalo dashtida yavov kezishdan Charxah bir olmoqda Fuzuliy ustoz...* Qadim-qadimdan she'riyatga, adabiyotga oshufta bo'lgan ajdodlarimiz Navoiyni ham, Fuzuliyning ham, Nasimiy va Mashrabni ham bir xil muhabbat va ehtirom ila e'zozlab, mulotlaga qilib kelgan, har ikki xalqqa mansub hassos shoirlar yaratgan bebaho durdonalar tarjimasiz tushunilgan.

— Bunday oltmish yillar oldin maktabda o'qib yurganimda, qo'limga Fuzuliyning 1958-yilda chop etilgan devoni tushib

qolgan, — deb eslaydi O'zbekiston xalq yozuvchisi, "Tafakkur" jurnali bosh muharriri Erkin Azam. — Juda dilga yoqadigan, ravon misralar. O'zimcha, o'sha kitobda "xatolar" ham topganman. Axir unda "ko'zim" degan so'z "go'zim", "tushmish" so'zi "dushmish" deb yozilgan edi. Men o'shanda Fuzuliy o'zbek shoiri deb o'ylaganman-dal Bugun qadrdon ozarbayjon do'stlarimiz bilan suhbatlashib, ana shu yaqinlikni, qardoshlikni chin dildan yana bir bor his qildim.

2004-yilda Ilhom Aliyev mamlakatimizga davlat tashrifi asnosida poytaxtimiz markazida ulug' mutafakkir Nizomiy Ganjaviniy haykalining ochilish marosimida ishtirok etgan edi. 2008-yilda Boku shahrida ulug' mutafakkir Alisher Navoiy haykali qad rostladi.

O'zbekiston fan va madaniyat kunlari ishtirokchilari ozarbayjonlik bir guruh ziyolilar bilan birgalikda Boku shahridagi Haydar Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Adabiy do'stlik — abadiy do'stlik

O'tgan asrda ham ikki xalq o'rtasidagi har tomonlama aloqalar ko'lami kengaydi. Bu esa yigirmanchi asrdagi adabiyotimizning yetuk namoyandalari ijodida alohida o'rinni tutgani ham ayni haqiqat. G'afur G'ulom, Maqsdul Shayxzoda, Abdulla Qahhor, Samad Vurg'un, Mirza Ibrohimov singari adiblar ana shu azaliy do'stlikni o'z asarlarida tarannum etgan.

Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning Ozarbayjonga bag'ishlab yozilgan she'rda mana bunday o'li misralarni uchratamiz. *E'zozlab ko'tarib turibdi boshga, Bu kun ozar eli O'zbekistonn.*

...2019-yilda O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan turkiy tilli davlatlarning har birida "Turkiy adabiyot durdonalari"ning yuz jildligini chop etish taklifi berilgan edi. Bu tashabbusni birinchi bo'lib o'zbekistonlik yozuvchilar va noshirlar amalga oshirdi. Qisqa vaqt ichida o'zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg'iz, venger adiblari asarlarini o'z ichiga olgan yuz jildlik "Turkiy adabiyot durdonalari" chop etildi. Shundan 16-jildi bevosita Ozarbayjon adabiyoti durdonalariga bag'ishlangan.

Tashrif doirasida Boku shahridagi "Mug'om markazi"da ikki xalq adiblari ishtirokida mazkur kitoblar taqdimoti o'tkazildi. So'zga chiqqanlar ikki xalq o'rtasidagi adabiy aloqalar tarixi, buguni va istiqbollari xususida fikr almashdilar.

— Bu ikki buyuk xalqni asrlar mobaynida bir-biriga bog'lab kelgan o'xshash jihatlari ko'p, — deydi Oliy Majlis Senati a'zosi, xalq shoiri Mahmud Toir. — Xalqlarimizning mushtarak yodgorligi hisoblanmish "Avesto" kitobi, shuningdek, xalq og'zaki ijodining o'lmas durdonalari sanalagan "Go'ro'g'li", "Oshig' G'arib", "Dada Qo'rqut" dostonlari ana shu azaliy qardoshlik, do'stlik va birodarlikning yorqin isbotidir. O'zbek musiqasining gultoyi sanalagan nodir maqomlarimiz va betakror Ozarbayjon mug'omlari orasidagi hamohanglik har ikki xalq o'rtasidagi yaqinlikni ifodalaydi.

Tadbirda so'zga chiqqan Ozarbayjon parlamenti deputati, Ozarbayjon xalq yozuvchisi, O'zbekistonning "Do'stlik" ordeni savindori Anor ham o'zbekistonlik adiblarni tashrif bilan qutlab, ikki xalq adabiyoti haqidagi fikrlarini bildirdi:

— Men qardosh O'zbekistonda barcha sohaga, xususan, adabiyotni, ma'naviy hayotni yuksaltirishga qaratilayotgan e'tibordan nihoyatda mamnunman, — dedi Anor muallim. — Yurtingizda bir necha marotaba mehmon bo'lganman. Xalqingizning odamoxunligi, mehmondostligi, bag'rikengligi o'z ko'zim bilan ko'rganman. Bu haqda ko'p maratalab yozganman ham. O'zbekiston rahbarining kitobga, ilm-fan va madaniyatga e'tibori nihoyatda baland. O'zbek shoir va yozuvchilari orasida qadrdon do'st-birdorlarim ko'p. Ularning ayrimlarini hozir oranzida ko'rib turibman. O'zbekistonda ko'plab asarlarim chop etilgan. Mazkur turkumning bir jildini mening asarlarimga bag'ishlashibdi. Bu e'tibor uchun chuqur minnatdorlik bildiraman. O'zbekistonning yanada gullab-yashnashini, o'zbekistonlik hamkasblarga ijodiy barkamollik tilayman.

"Turkiy adabiyot durdonalari"ning ikki jamlamasi Ozarbayjon Milliy kutubxonasi hamma Fuzuliy shahridagi O'zbekiston rahbariyati tomonidan qurib berilgan 1-sonli maktabga topshirildi.

Samimiy va qiziqarli uchrashuvlar...

O'zbekiston fan va madaniyat kunlari kutilganidan ham ziyoda, jo'shqin va ko'tarikni ruhda o'tidi, deydish mumkin. Xususan, tashrif doirasida O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqzad hamda Kavkaz musulmonlari idorasi raisi shayxulislam Ollohshukur Poshozoda o'zaro mulqot o'tkazdi.

Uchrashuvda ma'rifiy tadbirlar yuqori darajada tashkil etilgan haqida so'z yuritish barobarida kelgusidagi istiqbolli rejalarni, hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar va xalqaro anjumanlar haqida fikr-mulohaza almashildi. Shuningdek, ikki davlat rahbarlarining diniy-ma'rifiy sohaga qaratayotgan e'tiborlari natijasida ko'plab

xayriy ishlarni uddalanayotgani alohida qayd etildi.

— O'zbekiston Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda Vatan, xalq va din ravnaqi yo'lida katta ishlar amalga oshirilyotir, — dedi shayxulislam Ollohshukur Poshozoda. — O'zbekiston men uchun nihoyatda aziz va qadrlidir. Toshkent va Buxoroda o'tgan yoshlik yillarim, talablik davrim, ustozlarim, safdoshlarim bilan kechgan damlar hayotimda beqiyos o'rinni tutadi. O'tgan yil noyabr oyida Turkiy davlatlar muftiylari yig'ilishi va Mir Arab madrasasining 500-yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjuman juda yuqori darajada o'tkazildi. Yaratgandan har ikki gozal yurtga, xalqlarimizga tinchlik, to'kinlik va farovonlik so'rab qolaman.

Ayonki, tarixda ajdodlarimiz Sharq miniatyurasini va tasviriy san'ati rivojiga ham katta hissa qo'shishgan. Xususan, temuriylar davri Renessansi buyuk vakili Kamoliddin Behzod Ozarbayjon miniatyura maktabiga ham katta hissa qo'shgan. Buni O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, saqlash va ommalashtirish bo'yicha Butunjahon jamiyati tomonidan Haydar Aliyev markazida tashkil qilingan "Tarixiy shaxslar Sharq miniatyurasida" ko'rgazmasi orqali ham yaqqol ko'rish mumkin. Tasviriy san'at vakillari o'rtasidagi hamjihatlik bugunga qadar davom etib keladi.

— Men o'tgan asrning oltmishinchi yillarida Moskvada ozarbayjonlik tengdoshlarim bilan birga o'qiganman, — deydi O'zbekiston xalq rassomi Jabot Umarbekov. — Keyinchalik ular Ozarbayjon tasviriy san'atining ko'zga ko'ringan namoyandalari bo'lib yetishdilar. Ular bilan aloqalarimiz hali-hanuz jips. Men avval ham bu mamlakatga bir necha bor kelganman. Boku har kelganimda o'zgaracha, yanada yorqin qiyofada kutib oladi. Yangi binolar, yangi ko'chalar, bog' va xiyobonlar... Ammo Ozarbayjon elining samimiyligi, mehmondostligi hech qachon o'zgaraymaydi. Bu galgi tashrifimizda ham bular ishonch hosil qildik. Ozarbayjon rassomlar uyushmasida katta uchrashuv o'tkazildi. O'zbek rassomlarining asarlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Eski qadrdonlar bilan diyorlashib, yoshlik xotiralarini yodga oldik.

Xalqlarimiz san'ati ham bir-biriga juda yaqin, hamohang. Bu galgi uchrashuvlarda o'zbekistonlik san'atkorlar dirabro taronalarini bilan ishtirokchilarni xushnud qiladi.

— Men O'zbekistonn o'zining ikkinchi vatanim deb bilaman, — deydi O'zbekiston va Ozarbayjon xalq artisti Gulyanoq Mamedova. — Har gal O'zbekistonda bir olam yorqin taassurotlar, ilhom va g'ayrat bilan qaytaman. O'zbek tilida ham qo'shiqlar kuyilshni xush ko'raman. Bugungi do'stlik kechasida o'zbekistonlik hamkasblarimiz bilan birga kuyilgan har ikki tilidagi taronalar muxlislarimizga manzur bo'ldi, deb umid qilaman.

Adib va jurnalistlar Ozarbayjon matbuot kengashida bo'lib, omamviy axborot vositalari vakillari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish yuzasidan mulqot o'tkazdi. Uchrashuvda o'zbek va ozarbayjon jurnalistlari bugungi mediamakonda axborot almashish, har ikki mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalarni xolis va haqoniy yoritish bo'yicha hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar.

O'tgan asrning boshlarida jadid bobolarimiz ozarbayjonlik ma'rifatparvar ziyolilarimiz bilan yaqin aloqada bo'lishgan, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston xalq shoiri, "Jadid" gazetasi bosh muharriri Iqbol Mirzo. — Yaqinda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan gazetamizda ham ana shu an'anani davom ettirishni niyat qildik. Turkiiston taraqqiyoti, umummillat ravnaqi yo'lida ozar o'yindilari jadidlar safida peshqadamlardan bo'lgani yaxshi ma'lum. Gazetamizning atigi beshta soni chop etilgan bo'lsa-da, ularda ozarbayjonlik qator yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, olimlarning ham maqolalarini nashr qildik. Gazetamiz ozarbayjonlik hamkasblarimiz uchun ham ochiq minbarga aylanishini istardik.

...O'zbekiston fan va madaniyat kunlari nihoyasiga yetdi. Do'stona munosabatimizni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy anjuman, milliy an'ana va urf-odatlarini aks ettiruvchi ko'rgazma, madaniy-ma'rifiy tadbirlar nihoyatda qizg'in o'tdi. Uchrashuvlarda ozarbayjon va o'zbek tillarida she'rlar o'qildi, san'atkorlar ijrosidagi kuy va qo'shiqlar barchaga bayramona kayfiyat bag'ishladi.

— O'zbekiston delegatsiyasi vakillari uch kun davomida Ozarbayjonning qator oliy ta'lim dargohlarida, muzey va kutubxonalarida, ma'rifat maskanlarida bo'lib, davra suhbatlari, ta'dqiqotlar, ijodiy uchrashuvlar o'tkazdi, — deydi mamlakatimizning Ozarbayjondagi Favqulodda va muxtor elchisi Bahrom Ashrafxonov. — Aytish joizki, bu tadbirlar barchasi yuqori sayiyada, samimiy va ko'tarinki ruhda o'tdi. Chunki bu ikki mamlakat, ikki xalq doim bir-biriga talpinib kelgan. Bunday uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar davomiyligi uchun xizmat qiladi.

Rustam JABBOROV ("Xalq so'zi"), Toshkent — Boku — Toshkent

Xalq so'zi Narodnoe slovo

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbek